

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN MUNOSABATI**Gulmira Jasur qizi Xolboyeva**

Termiz Davlat Universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi.

Hakim Yarashovich Axmedov

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19481570>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, O'zbekistonning 2000-2021 yillarda Markaziy Osiyo (MO) mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi haqida turli tomonlama tahlillar keltirilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasining rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonning Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari bilan tashqi savdo yo'llarini rivojlantirish istiqbolli ekanligi yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy osiyo (MO), O'zbekiston, Import, Savdo, Eksport, Savdo hajmi, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, strategic sheriklik, Ta'lim, Ijtimoiy barqarorlik, ahil qo'shnihilik, tinchlik, investitsiyaviylik.

KIRISH.

“Bizning bosh maqsadimiz- umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat.

Buning uchun biz turli nizolarni qo'zg'aydigan va unga ko'maklashadigan sabab va omillarga birgalikda barham bermog'imiz, umummintaqaviy ustuvor manfaatlarni inobatga olish asosida milliy rivojlanishni ta'minlamog'imiz zarur.

Biz bugun taraqqiyotimizning umumiy ustuvor yo'nalishlarini anglagan holda, chegara, suvdan foydalanish, transport va savdo singari o'tkir mintaqaviy masalalarni yechish bo'yicha oqilona murosa yo'lini izlamoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o'tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi.

Bugungi kunda, O'zbekistonimiz va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasida do'stona va ahil qo'shnihilik munosabatlari, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalar rivojlantirilgan. Mamlakatimiz o'zining 38 millinga yaqin aholisi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p.

Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketgani bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

ASOSIY QISM.

O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, mintaq va global darajada faol tashqi siyosatni yo'lga qo'yib, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. 2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi.

Shu yilning o'zida Qozog'iston, Turkmaniston, va Qirg'iziston davlatlariga O'zbekiston Prezidentining rasmiy tashriflari amalga oshirildi. 2018-yil mart oyida esa Tojikistonda oliy darajadagi uchrashuv amalga oshirildi.

Bundan tashqari, 2017-yil Samarqandda BMT homiyligida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida anjuman bo‘ldi. Unda 500 nafar xorijiy ishtirokchilar qatnashdi.

2021-yilda, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi 3,9 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa (2020 yilga nisbatan 30% ga ko‘p), 2022 yil yanvar-noyabrda 4,2 milliard dollar: 1,27 milliard dollari eksport hisobi bo‘yicha bo‘lsa, qolgan 2,93 milliard dollari import hisobiga kiritilgan. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan umumiy hisobda 7 milliard AQSH dollariga teng o‘zaro savdosining 60% Qozog‘istonga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kun nuqtai nazardan, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi o‘zaro savdo Markaziy Osiyodagi hududiy ichki savdoning 25% ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Qirg‘iziston bilan ham ikki tomonlama kelishuvlar, SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti) MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlarini olib boradi. 4 yil mobaynida, (2016-2020) O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan Tovar aylanmasi 3,5 barobar o‘shib, 903 million dollarga yetdi. 2021 yil yakunlari bo‘yicha, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 953,5 million dollardan, 2022 yil birinchi yarmida esa 590 million dollardan oshdi.

2016-2017 yildan keyin O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining takomillashishi natijasida uning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham savdo aloqalari rivojlanib bordi. Misol qilib, O‘zbekistonning yirik 5 ta eksport hamkorlarining 2 tasi ya‘ni Qirg‘iziston (8,2%) va Qozog‘iston (11%), import hamkorlarining bittasi Qozog‘iston (11%) mamlakatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aktiv savdo aylanmasiga egadir. O‘zbekistonning qo‘shni markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlari yangi mazmun kasb etib, ta‘lim, savdo, transport, energetika va xavfsizlik sohalarida o‘zaro manfaatli sheriklikni kuchaytirmoqda.

Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqish borasida 2020-yil davomida tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatlar bo‘yicha davlat idoralari tashabbusi bilan 23 ta oliy darajada va 12 ta yuqori darajada tashrif va turli tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu jarayon orqali “Xalq diplomatiyasi” amalda juda faol bo‘lgani kuzatiladi.

Xususan, xalq vakillari-rassomlar, olimlar, madaniyat va din arboblari, turizm, yoshlar va ishbilarmonlar hamda sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar ishtirokida 100 dan ortiq turli anjuman, uchrashuv, videokonfrensiya va boshqa shu kabi tadbirlar o‘tkazildi.

Yana bir yaxshi tomoni shundaki, so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari qo‘shi davlatlar rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch mustahkamlandi.

2017-yildan boshlab, o‘zbek diplomatiyasida sifat jihatdan butunlay yangi sahifa ochilib, respublikamizning xalqaro maydonga olib borayotgan faoliyati yangi bosqichga chiqdi, deb aytish mumkin. Buning asosiy sababi-mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan dunyoga ochiqlik siyosati, birinchi navbatda yaqin qo‘shnilarimiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. O‘zbekiston tarixida birinchi marta respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlisga murojaat qildi va tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi yaqin qo‘shnilar bilan konstruktiv muloqot va kuchli tashqi siyosat olib boorish kerakligini ta’kidladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston rivojlanishining besh ustuvor yo'nalishi ochiq, konstruktiv va o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borishni, shu jumladan, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shniçilik kamarini yaratishni ko'zda tutadi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlik mamlakatimiz uchun juda muhim ekanini yana bir bor ko'rsatadi.

O'zbekistonning Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va Tojikiston bilan 2000-2021 yillardagi savdo aylanmasi hajmi (million, AQSH dollarida).

Yillar.	O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi.	O'zbekiston Qozog'iston.	O'zbekiston Qirg'iziston.	O'zbekiston Tojikiston.	O'zbekiston Turkmaniston
2000	6 212,1	53,9	156,8	284	387,5
2001	6 307,3	224,3	108,8	238	Berilmagan
2002	5 700,4	78,7	81,9	205	Berilmagan
2003	6 689,2	229,9	50,2	200	Berilmagan
2004	8 669,0	409	57	235	Berilmagan
2005	9 500,1	476	71,5	218	Berilmagan
2006	11 171,4	679	58,5	243	Berilmagan
2007	15 719,6	1 367	194,7	301	Berilmagan
2007	21 197,3	1 742	141	229	Berilmagan
2009	21 209,6	1 158	140,9	198	Berilmagan
2010	22 199,2	1 539	126,6	81	Berilmagan
2011	26 365,9	1 911	201,4	69,4	Berilmagan
2012	26 416,1	2 103	0	62	Berilmagan
2013	28 269,6	2 074	251,4	12,1	Berilmagan
2014	27 530,0	2 060	265	12,8	373,9
2015	24 924,2	1 629	151,5	12	278,7
2016	24 232,2	1 490	193,1	67,3	183
2017	26 566,1	2 243	322	76,5	151,5
2018	33 429,9	2 870	511	295	254,2
2019	41 751,0	3 170	775	376	426,5
2020	36 256,1	2 890	912	401,2	439
2021	42 170,5	3 740	934	428,1	784,6

Ushbu jadval ma'lumotlariga muvofiq, O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan Tovar aylanmasining O'zbekiston umumiy Tovar aylanmasiga ta'siri 2000-2021 yillar bo'yicha regression-korelyatsion (**Korrelyatsiya** bog'liqlikning kuchi va yo'nalishini (+1 dan -1 gacha), **Regression** esa bir o'zgaruvchining boshqasiga qancha ta'sir qilishi) tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning mana shunday yaxshilanishi, umuman olib qaraganda, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi. Xususan, 2017-2020 yillar oralig'ida O'zbekiston va mintaqa mamlakatlari o'rtasida 300 dan ortiq shartnoma, shuningdek, qariyb 75 milliard dollarga teng shartnoma va bitimlar imzolangan. 2020-yil - "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi doirasida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini, jumladan, Markaziy Osiyo yo'nalishida ham izchil davom etdi.

Qayd etish joizki, 2013-yil imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma ham o'ta muhim hujjatlar sirasiga kiradi. 2014-yil O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'iston respublikasida bo'ldi. 2017-yil iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Ostona sammiti munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'istonda bo'ldi. 2017-yil sentabrda Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Ushbu uchrashuvda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevni "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi. Bu kabi rasmiy tashriflar O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik, tinchlik, farovonlikni mustahkamlashga zamin yaratadi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan eksport va import tuzilmasi (2021-yil, million AQSH dollarida).

	EKSPORT (AQSH dollarida)	IMPORT (AQSH dollarida)
O'zbekiston Qozog'iston	1.Transport vositalari (325,06 million). 2.Meva, yong'oq, qovun (112,77 million). 3.Sabzavotlar (74,43 million). 4.Plastmassa (58,08 million). 5.Mashina, yadro reaktorlari, kotellar (49,38 million dollar). va boshqalar.	1.Yorma (649 million). 2.Temir va po'lat (474,3 million). 3.Rudalar (347,21 million). 4. Mineral yoqilg'ilar, moylar va distillatorlar (288,80 million). 5. Temir yo'l va tramvaydan tashqari transport vositalari (119,95 million) va boshqalar.
O'zbekiston Qirg'iziston.	1.Kiyim (187,48 million). 2.Trikotaj va to'qilgan buyumlar (97,52 million). 3.Boshqa tekstil buyumlari (33,66 million). 4.Plastmassa (31,51 million). 5. Sabzavotlar (28,95 million) va boshqalar.	1.Mineral yoqilg'ilar, moylar va distillatorlar (44,11 million). 2.Tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement (33,03 million). 3. Temir va po'lat (21,05 million). 4. Mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar (8,65 million). 5. Shisha va shisha idishlar (6,96 million) va boshqaolar.
O'zbekiston Tojikiston	1.Mineral yoqilg'i (54,83 million). 2.Oziq-ovqat sanoati chiqindilari (43,79million). 3.O'qitlar (30,13 million). 4. Plastmassa (17,69 million). 5.Temir va po'lat (17,46 million) va boshqalar.	1.Tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement (33,77 million). 2. Mineral yoqilg'ilar, moylar va distillatorlar (22,99 million). 3.Temir va po'lat (17,96 million). 4.Alyuminiy (8,28 million) 5.Paxta (5,62 million) va boshqalar.
O'zbekiston Turkmaniston	1.O'g'itlar (48,41 million). 2.Tuz, tsement va gips (5,79	1.Mineral yoqilg'ilar, moylar va distillatorlar (633, 54 million).

million). 3. Meva, yong'oq va qovun (5,49 million). 4. Hayvon, hayvon yog'lari (3,74 million). 5. Tosh, gips va asbest (3,47 million) va boshqalar.	2. Plastmassa (31,00 million). 3. Shisha va shisha idishlar (7,76 million). 4. Sun'iy iplar (2,08 million). 5. Mashinalar, qozonxonalar (1,94 million) va boshqalar.
--	---

Markaziy Osiyo mamlakatlarining eksport va import tovarlari tarkibi bir-biriga o'xshash. Shu sababli ham Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Masalan, tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement, plastmassa ishlab chiqarish jarayonida hamkorlikni yo'lga qo'yish mumkin.

XULOSA.

Yuqoridagi fakt va fikrlardan shuni xulosa qilib ayta olamanki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining barcha sohalarda teng huquqli sheriklik va hamjihatlik asosida hamkorligi mintaqa rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Mamlakatimiz rahbarining tashabbuslari, faol va pragmatik diplomatiya hamda tashqi siyosat tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit vujudga keldi.

Bundan tashqari, O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning barqarorligi va samaradorligi mintaqaviy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik hamda ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kelajakda innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish mamlakatlar o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga imkon beradi. Shu tarzda, mintaqaviy integratsiya jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy sohalarda ham yangi imkoniyatlar yaratadi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, Manaviyat 2008.
2. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", Toshkent, "O'zbekiston" 2017.
3. <https://sputniknews-uz.com/20220726/o'zbekiston-va-qirgiziston-avtomobilsozlik-sohasidagi-qoshma-loyihalarni-kopaytirmoqchi-26543226.html>.
4. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston statistika boshqarmalari ma'lumotlaridan, CAAN ma'lumotlaridan olingan. <https://www.caa-network.org/archives/19734>.
5. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni. //Xo'jalik va huquq, 2000.
6. www.gov.uz-O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
7. <https://uz.wikipedia.org>.
8. <https://cyberleninka.ru>.
9. www.president.uz.
10. <https://arm.tersu.uz>.